

ZAMONAVIY SHAROITDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYAT

*Bozarboyeva Moxinur Shokir qizi**Jizzax davlat pedagogika universiteti**Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi yunalishi**1-bosqich magistranti**E-mail: bozorboyevamohinur64@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy -axloqiy madaniyat haqida umumiy tushunchalar , ma'naviy-axloqiy xulq-atvor , ma'naviy-axloqiy madaniyat metodlari haqida ma'lumotlar berilgan. Zamonaviy sharoitda ma'naviy-axloqiy madaniyat yagona madaniyat jarayonining tarkibiy qismi bo'lib , jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy xulqni boshqara olishi bilan dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqola orqali ma'naviy-axloqiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari , tub mohiyati, tushunchalari batafsil tushuntirildi, misollar orqali dalillandi. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning zamonaviy sharoitda shakllanishida milliy qadriyatlarning o'rni va ayniqsa madaniyat masalasi batafsil ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, axloq, axloqiy madaniyat, xulq-atvor, tarbiya, qadriyat, madaniyat, ma'rifat, mafkura, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar , yoshlar siyosati, tarixiy ,madaniy va ma'naviy meroslar , diniy qadriyatlar , meros , barkamol avlod, milliy g'oya, ta'lim.

Annotation: This article covers general concepts about spiritual-moral culture , spiritual-moral behavior , methods of spiritual-moral culture. In modern conditions, spiritual and moral culture is a component of a single cultural process and is relevant in that it manages social behavior in the development of society. Through this article ,the specifics, fundamental essence, concepts of spiritual and moral culture were explained in detail, evidenced by examples. The role of national values in the formation of spiritual and moral culture in modern conditions and especially the issue of culture were considered in detail.

Key words: Moral, behaviour, manner culture ,conduct, education , conviction , culture ,ideology , morality , spirituality value, young politics , historical ,cultural and moral inheritance , religious conviction , heritage, mature generation, traditional idea, education .

Zamonaviy sharoitda ma'naviy-axloqiy madaniyat murakkab va serqirra hodisa sifatida turli fanlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib , takomillashib kelgan me'yor va qoidalardan iborat bo'lib ,ular kishilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladigan tushuncha hisoblanadi.Bu me'yor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur

bo'lgan axloqqa ega bo'lishlikni talab qiladi. Shunga muvofiq , biror shaxsning xulq-atvori , yurish-turishiga axloqli yoki axloqsiz deb baholashga imkon beradi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan ,uning voqea-hodisalar,kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi. Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi . Ma'naviy-axloqiy madaniyat- ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish , axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib , bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga , ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim . Yoshlarni ma'naviy -axloqiy tarbiyalash tizimini shakllantirishda boshlang'ich maktab muhim o'rin tutadi . Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov : “Eng buyuk jasorat- ma'naviy jasorat” degan gaplari ham bejiz emas . Chunki ma'naviyat bu insonning komil shaxs bo'lib shakllantiirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda har tomonlama kamol topgan yuksak kasb- hunar madaniyatiga , ijodiy ijtimoiy faollikka ega bo'lgan , jamiyat davlat ,oila oldida o'z javobgarlini his etadigan shaxslarni tarbiyalash masalasiga amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy maqsadi hamda harakatlanuvchi kuchi sifatida qaralmoqda . Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib tarkib topgan me'yor va qoidalardan iborat bo'lib , ular kishilarning jamiyatga tayyorgarlik munosabatini tartibga solidi. Har qaysi mintaqada ma'naviy -axloqiy madaniyatning rivojlanganlik darajasini ko'rib chiqiladi avvalo.Madaniyat shakllanishida asosiy e'tibor ma'naviyatga qaratiladi . Ma'naviyat - inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy ,huquqiy ,ilmiy ,badiiy , axloqiy , diniy tasavvurlarni o'z ichiga oladi . Ma'naviyat atamasining asosida “ma'no” so'zi yotadi . jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi . Hozirgi zamonaviy sharoitda ma'naviy-axloqiy madaniyat tom ma'noda o'zgarib rivojlanib bormoqda. “Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq, qo'shnilar , balki jahon miqyosida boshqa mintaqah va hududlar bilan , shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish , anglash qiyin emas .Shu ma'noda hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”¹. Zamonaviy sharoitdagi

¹ Karimov .I. “ Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch “ T.:Ma'naviyat ,2008, 111-b

madaniyat tubdan o'zgarib borayotgan o'zgarishlar natijasida ham namoyon bo'ladi . Mamlakatimiz mustaqilligining rivojlanish konsepsiyalari ,davlat dasturlarida iqtisodiyot , ijtimoiy sohalar ichki va tashqi siyosat masalalariga ustuvor ahamiyat kasb etgan . Ma'naviy sohadagi jarayonlar turli xil o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda . Zamonaviy sharoitdagi ma'naviy-axloqiy madaniyatlar turli xil bosqichlardagi axloq tushunchasi bilan namoyon bo'ladi . Axloq arabcha so'zdan olingan bo'lib " xulq atvor " degan ma'noni anglatadi . Mamlakatimizda har tomonlama kamol topgan yuksak kasb-hunar madaniyatiga , ijodiy, ijtimoiy, faolikka ega bo'lgan, jamiyat , davlat ,oila oldida o'z javobgarlikni his etadigan shaxslarni tarbiyalash masalasiga amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy maqsadi hamda harakatlanuvchi kuchi sifatida qaralmoqda. Madaniyat keng tomonlama tushuncha. Jondor Tulenov "Hayot falsafasi " asarida shunday deydi: Madaniyatni paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy ,ilk bosqichlariga borib taqaladi. Boshqacha aytganda , madaniyat insonning kelib chiqishi bilan uzviy aloqadir.

Zamonaviy sharoitda madaniyat va ma'naviyatlar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi . Madaniyat rivojlanishi o'z navbatida ma'naviyatga va axloq masalalariga ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazadi. Aslini olganda ma'naviyat so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib , "ma'no" , "ma'nolar majmuasi" degan ma'noni anglatadi. Axloq esa arabcha "xulqning ko'pligi" , "xulq-atvor" va jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bunda axloq , o'dob va ma'naviyat so'zlari bir birlari bilan chambarchas bog'langan bo'ladi va bir birini taqozo etadi . Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar natijasida turli xil voqealar va jarayonlarning o'zgarishlari natijasida namoyon bo'ladi. Insoniyat tarixidagi katta ahamiyat kasb etgan ma'naviy qadriyatlardan biri Markaziy Osiyo XI- XVII asrlarda keng rivojlangan ma'naviy qadriyatlar madaniyatdir. Ahmad Yassaviy ma'naviy-axloqiy ma'naviyat haqida ham o'zining bir qator tushunchalarini ilgari surgan. Ma'naviyat va madaniyat ayni damda axloqiy tarbiyani to'ldirib keladi. Har bir jamiyat hayotida o'zgarishlar natijasida jamiyat hayotidagi insonlarning madaniyatida turli xil o'zgarishlar bo'ladi. Madaniyatni rivojlanishi bilan turli xil jarayonlar ham ro'y bera boshlaydi. Ma'naviy madaniyat -insonning ma'naviy xususiyat va xislatlari ,jamiyatning madaniy darajasini aks ettiruvchi tushuncha . Jamiyat va o'z o'zini tarbiyalash jarayoni , shaxsning xatti-harakatlari va qiyofasida ma'naviyat tamoyillari qanchalik chuqur singib ketganligini namoyon etuvchi atama.Ma'naviy madaniyat "moddiy madaniyat " tushunchasidan farq qiladi , ammo u bilan bog'liq va o'zaro aloqada namoyon bo'ladi . Axloqiy madaniyat esa jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasini , fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha.U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq me'yorlarini egallashi va o'zgalar bilan shu asosda munosabatda bo'lishi , o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi . Axloqiy aqidalarning eng muhimi asosiy omillaridan biri- muomala odobi. Insonlar bir-biri

bilan hamkorlik qilmasdan ,o'zaro tajriba almashmasdan ,o'zaro ta'sir ko'rsatmasdan yashashi mumkin emas . Muomala odobining bo'lishi kishilar o'rtasidagi aloqlarning yaxshilanishini anglatadi. Axloqiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri esa etiketdir . Bu voqealar jarayonlarning har birida madaniyat alohida kasb etadi .Madaniyati rivojlangan ,madaniyatli kishi har tomonlama yetuk shaxs bo'la oladi. Ma'daniyat so'zi inson faoliyati va hu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuasidir. Madaniyat musiqa, adabiyot , badiiy tasvir , me'morchilik, teatr , turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'ladi . Madaniyat o'z ichiga san'at , fan va ma'naviy tizimlarni oladi . Madaniyatning tor ma'nodagi xususiyatlari ham bor . Tor ma'noda ma'daniyat atamasi kishilarning faqat ma'naviy haypti sohasiga nisbatan ishlatiladi . “Ma'daniyat “ so'zi arabcha madina(Shahar) so'zidan kelib chiqqan . Abu Nasr Farobiyning ta'kidlashicha : “madaniy jamiyat va madaniy Shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki , bu mamlakatda har biro dam kasb-hunarda ozod , hamma barobar , kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi , har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi . Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar” . deb ta'kidlaydi .

Globalashuv zamonda yasharkanmiz, XXI asr dunyoda hayot suratlarining jadallashtirib , madaniy turmushni tubdan o'zgartirib yubordi.Jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy , iqtisodiy, siyosiy voqealar , bir tomondan , yangi munosabatlar va qarashlarni keltirib chiqqan bo'lsa , ikkinchi tomondan , axloqiy madaniyatni global inqiroz yoqasiga olib keldi .Jahonda innovatsiya , intellekt evolyutsiya , kasb va axloqqa oid bilim madaniyatning muhim qadriyati sifatida e'tirof etilmoqda .Dunyoning rivojlangan davlatlarida Amerika Qo'shma Shtatlari , Kanada , Fransiya , Germaniya , Yaponiya , Xitoy kabi davlatlarda axloqiy madaniyat va ma'naviy madaniyat tushunchalari xalqda yetarlicha tushunchaga ega . Xususan , O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi kasbiy va axloqiy madaniyati uyg'un rivojlangan mutaxassislarni tayyorlash orqali xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini musthkamlashga erishish , xalq bilan hokimiyat , fuqaro bilan mansabdor shaxs o'rtasidagi axloqiy munosabatni madaniy jihatdan yuksaltirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan dalolat beradi .

Madaniyat ko'p qirrali jarayon bo'lganligi uchun uni yoritishda faylasuflardan tashqari iqtisodchilar , siyosatshunoslar , filologlar , psixologlar , pedagoglar , huquqshunoslar , tarixchilar ham keng ishtirok etadi albatta . Ma'naviy -axloqiy madaniyatning zamonaviy sharoitda o'rganilishining dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki , hozirgi vaqtda “Erkin fuqaro ma'naviyatini , oozd shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir ...erkin , har jihatdan barkamol insonlarni tarbiylashimiz kerak “ .²Darhaqiqat , “Mamlakatimiz mustaqilligini

² Karimov .I.A. “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda .T .O'zbekiston , 1999, 17-18-betlar

mustahkamlash , milliy davlatchilikni shakllantirish , huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolar jamiyatini qaror toptirishdek ulug' orzu-umidlar bilan Yashar ekanmiz , - deb ko'rsatib o'tadi . I.A.Karimov, - ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar va ularning natijalariga alohida e'tibor bermaslik mumkin emas “³. Ana shunday ijtimoiy ehtiyoj axloqiy madaniyat va uning rivojlanishi xususiyatlarini ilmiy talqin etishga zamon talabi asosida mavzuga yangicha yondashish lozimligini taqozo etmoqda . Mustaqillikka erishganimizgan so'ng madaniyatimizni o'rni ham har tomonlama o'sib bordi . Axloqiy madaniyat masalasini tadqiq etishda uning o'rni va rivojlanishi borasidagi ahamiyati o'zgarib bormoqda . Ma'naviy -axloqiy madaniyatni rivojlantirish uchun ham yoshlarda maktab o'quvchilari uchun o'sha davrdagi “Odobnoma” va hozirghi kundagi esa “Tarbiya” darsligi esa odob axloq haqidagi bilimdir . Ma'lumki odob ma'daniyati axloq madaniyatining bir qismi bo'lib , madaniyatning mazkur sohasini to'la qamrab ololmaydi. Zamonaviy sharoitdagi ma'naviy-axloqiy madaniyat bu ko'p tomonlama esa qadriyatlarga ham borib taqaladi , qadriyatlar rivojlanishi , qadriyatlarning o'rni ham madaniyatning rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Madaniyat borasida gap ketganda turli xil tushunchalar mavjud. “Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan har bir milliy madaniyatdagi yutuqlar , uning ijobiy , foydali tomonlarini doimiy ravishda o'rganish ,ulardan keng va atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o'zaro atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o'zaro boyitishning , kishilarni baynalminal ruhda tarbiyalashning zarur shartlaridan hisoblanadi” deb aytadilarki , J.Tulenov, Z. G'ofurovlar .⁴ Ma'naviyat , axloq va ,madaniyat tushunchalari har bir xalq uchun juda muhim bo'lgan tushunchalar hisoblanadi . G'arb faylasufi Albert Shveyser : “Voqelikni shakllantiradigan kuchlar Ichida birinchisi – ma'anaviyat va axloq .Qolgan barchasi ozmi ko'pmi ikkinchi darajali”⁵

Madaniyatlarni rivojlanishida turli xil vositlar alohida ahamiyat kasb etadi . Shu asosida ma'naviyat , axloq ham muhim o'rin tutadi. Yoshlarni ma'naviyat , ma'rifat ruhida tarbiyalash hozirgi kunning va kelajakning dolzarb masalasi bo'lib turibdi, chunki ma'nan , ruhan , axloqan ,jismonan kamol topgan kishi har qanday yangiliklarni yaratishda kuch- qudrati, ilm- salohiyati talab darajasida bo'ladi. Yoshlarni yuksak umuminsoniy g'oyalar ruhida tarbiyalashda ma'rifat va ma'naviyatning o'rnini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Insonning kamol topishida aqlan ulg'ayishida ham axloq tushunchasining o'rni beqiyos hisoblanadi. Bu borasida Abu Abdulla Rudakiy takidlaganidek: “Fazilatli kishini g'amdan to'rt narsa halos etadi : sog'lom ta'na , go'zal axloq , ezgu nom va aql “ . Shuning uchun ham axloqli kishi ko'p tomonlama rivojlana oladi va uning dunyoqarashida ham ko'p o'zgarishlar ro'y beradi . Ma'naviy axloqiy madaniyatlar bu bizning eng katta boyliklarimiz hisoblanadi , zero, ma'naviy

³ Karimov I.A. “Istiqlol va ma'naviyat” .T;... O'zbekiston , 1994, 58-bet .

⁴ Tulenov J “ Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolat “ .- Toshkent : Mehnat , 2000.- 17-18-b

⁵ Saidov U . “ Globallashuv va madaniyatlararo muloqat “ .-Toshkent : Akademiya , 2002.- 26 b

boyliklar avloddan avlodga – bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o'tadi va jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi . Zamon rivojlanib borgani sayin insonlarning ma'naviyati ham axloqi ham o'zgarib boradi .Ya'ni zamon rivojlanib bormoqda biz globallashuv zamonda Yashar ekanmiz , bizning qadriyatlarimiz ham zamonga xos tarzda moslashib boradi albatta . Yoshlarni ma'naviy -axloqiy ruhda tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb vazifasidir. Shuni bilamizki , davlatimiz aholisining yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi . Birorta ijtimoiy – siyosiy , iqtisodiy , madaniy – ma'naviy voqea yoshlarsiz yuz berishi mumkin emas. Yoshlarni ma'naviy -axloqiy ruhda tarbiyalashda professor- o'qituvchilar , oila , ota-onalar , rahbarlar quyidagilarga e'tibor berishlari lozim;

-ta'lim- tarbiyaning sifatini oshiradigan elektron darsliklar , adabiyotlar ,internetdan kerakli ma'lumotlarni bilib olish uchun shart- sharoitlarni yaratishga:

- har bir o'quvchi , talabani aqliy va ijtimoiy foydali mehnatga muntazam o'rgatib borishga:

- yoshlarni sport bilan shug'ullanishga ota- onalar , o'qituvchilar , rahbarlar doimo g'amxo'rlik qilib , ularga shart- sharoitlar yaratishga , tez-tez yoshlar o'rtasida kechalar , davra suhbatlari , olimlar , shoirlar , qaharamonlar , iqtidorli kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazib turishga va h.k.

“Har doim inson – eng oliy qadriyat hisoblanib kelingani ham bejiz emas . Har bir voqea zamirida albatta inson yotadi. Qur'onda biz inson zotini mukarram qilib yaratdik va yer yuzida pok narsalardan rizqlantirdik,yerda , suvda yuradigan qilib , vaqtlarini yaratib berdik bunda inson muhim ahamiyat kasb etishini taqozo etdi. Mustaqil O'zbekiston oldida ma'naviy madaniyat sohasida , muhim vazifalar ko'ndalang bilib turibdi. Ulardan asosiysi ma'naviyuatimizni boyitish va mustahkamlash .Ma'naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllarini o'z ichiga qamrab oladi. Axloq va ma'naviy madaniyat bir biri bilan uzviy bog'liqdir“⁶. Madaniyat atamasi barcha so'zlar axloq va ma'naviyatga ham yetarlicha ta'sir o'tkazishi aniq. Frnasuz olimi A.Mol XX asrning 60-yillarida madaniyatning 250 dan ortiq ta'rifi yaratilganligini ta'kidlagan edi.Bugungi kunda madaniyat tushunchasining ta'rifi bundan ikki barobar ortiq bo'lsa ham ajab emas , balki madaniyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini anglashga qaratilishi lozim .

⁷ Shu asnoda hozirgi biz o'zbek tilida “madaniyat” tushunchasiga beriladigan mazmuni arablar “sakofa” termini bilan ifodalaydilar. Madaniyatni deyarli barcha xalqlarda ,ma'naviy faoliya sohas sifatida tushinish ustuvor bo'lganini alohida qayd etish lozim. Faqat XIX asr o'rtalariga kelib “madaniyat” tushunchasi kengroq ma'noda – inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan narsalarga nisbatan ishlatila boshlangan . Madaniyat so'ziga turlicha ma'nolar tushunchalar bilan to'xtaladi. Madaniyat

⁶ Safarxojiyev. P. “ Ma'naviy madaniyat” .- Toshkent: “Muharrir “ , 2012. – 178- b

⁷

atamasining yana bir ma'nosi arancha "madina " va "iyat" so'z yasovchi qo'shimchasining birikishidan hosil bo'lib , aynan " shaharga oid " , degan ma'noni anglatadi. Ko'pgina xalqlarda esa "madaniyat " tushunchasi o'rnida lotin tilidan qabul qilingan "culture" termini ishlatiladi. "Culture" so'zining asl ma'nosi ham inglizchada madaniyat degan ma'noni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Karimov. I .A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch " .T .: Ma'naviyat , 2002, 11-b
2. Karimov.I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" . T.: O'zbekiston , 1999, 17-18-b
3. Karimov.I.A. "Istiqlol va ma'naviyat" . T .: O'zbekiston,1994, 58-bet.
4. Tulenov .J. "Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolat "._ Toshkent:Mehnat, 2000 - 17-18-b
5. Saidov U. "Globalashuv va madaniyatlararo muloqat". -Toshkent: Akademiya, 2000 .-26-b
6. Safarxojiyev.P. "Ma'naviy madaniyat".- Toshkent: , 2012.- 178-b